

**BOLALAR YOZUVCHILARINING ASARLARINI O'QISH ORQALI
BOLALARDA IJODIY QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISH**

Kurbanova Gulzoda Yunusovna

BuxDPI o'qituvchisi

gulzodakurbanova84@gmail.com

Ashurova Zevar A'loqul qizi

1-bosqich talabasi

Q. Murtazoyev ko'chasi 13 A-uy

Tel.: +99877208091

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalar adabiyotida ijod qiluvchi yozuvchi va shoir asarlarining bolalar ongida shakllantirayotgan ijodiy qobiliyatlar haqida so'z boradi. Obrazli tafakkur, ijodiy fikrlash, esda saqlash va diqqatni jamlash kabi qobiliyatlarning barchasi bolalar adabiyotida ijod qiluvchi yozuvchilarning asosiy maqsadidan biridir.

Kalit so'zlari: bolalar adabiyoti, obrazli tafakkur, xotira, yosh xususiyatlar, ijodiy qobiliyat, axloqiy tarbiya, mustaqil fikrlash.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, ularning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bolalar yozuvchilarining asarlarini o'qish orqali bu jarayonni tabiiy, qiziqarli va samarali yo'lga qo'yish mumkin. Bunday asarlar bolaning ongiga mos, tasavvur doirasini kengaytiruvchi, estetik didini shakllantiruvchi va eng asosiysi, ijodiy salohiyatini yuzaga chiqaruvchi kuchga ega. Bolalar yozuvchilari tomonidan yaratilgan asarlar – ertaklar, hikoyalar, bolalarga mo'ljallangan she'rlar – yosh kitobxonning tasavvurini, obrazli fikrlashini va voqealarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatini oshiradi. Xudoyberdi To'xtaboyev, Husan Shayx, Erkin A'zam kabi mualliflarning asarlari orqali bolalar hayotiy voqealar va badiiy xayolot o'rtasidagi farqni anglay boshlaydi, o'z savollariga javob izlaydi, voqelikka ijodiy yondashishni o'rganadi. Ijodiy qobiliyat – bu insonning mavjud bilim va tajribalar asosida yangilik yaratishga intilishi, o'z fikrini erkin ifoda eta olishi, badiiy-estetik dunyoqarashining rivojlanishidir. Bolalar yozuvchilari o'z asarlarida buni sodda, ravon va tasirchan til orqali taqdim etadilar. Shu bois, bu kabi asarlarni o'qigan bola o'z ichki dunyosini boyitadi, atrof-muhitga yangicha nigoh bilan qarashni o'rganadi.

Bundan tashqari, badiiy matnlar orqali bola o'z hayolotini ishga soladi, yangi obrazlar yaratadi, o'qiganlari asosida yangi hikoya yoki ertak to'qishga intiladi. Bu esa uning ijodiy qobiliyatining ilk bosqichini tashkil etadi. Pedagoglar va ota-onalar tomonidan bolalarga badiiy adabiyotlar o'qishni tavsiya qilish, ular bilan birga tahlil qilish, o'qiganlari yuzasidan suhbatlar tashkil etish bu jarayonni yanada samaraliroq qiladi.

Bolalar adabiyoti yosh avlodning ijodiy salohiyatlarini rivojlantirish, ularning ongida ezgulik, vatanga muhabbat g'oyalarini singdirish uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy-

ommabop va publitsistik asarlar majmuyidir. Bolalar adabiyotining dastlab yurtimizga kirib kelishi XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Dastlabki bolalar uchun mo'ljallangan she'r va hikoyalar jadidlar tomonidan ochilgan maktablarda darsliklar tarkibida kiritilgan edi. Keyinchalik bu sohaning rivojlanishi natijasida adabiyotda "bolalar adabiyoti" tushunchasi kirib keldi. Bolalar adabiyotining rivoji, albatta, shu yo'nalishda ijod qiluvchi shoir hamda yozuvchilarning yaratgan asarlariga bog'liqdir. Yaratilgan har bir ijod namunasida bolaning yosh xususiyatiga e'tibor qaratish, ular uchun tushunarli va qiziqarli voqealarga boy bo'lgan asarni dunyoga keltirish ijodkordan katta mahorat talab qiladi. Bolalar adabiyoti uchun ijod namunasi yaratish, kattalar adabiyotida asar yozishdan ko'ra nisbatan qiyinroqdir. Negaki, ijodkor yaratgan har bir she'r, hikoya, qissa hamda romanda qo'yilgan birgina xatolik ham bolaning dunyoqarashi va fikrlash salohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun ham bolalar adabiyoti mo'ljallangan asar yaratayotganda, uning tarbiyaviy ahamiyatiga, bolaning yosh xususiyatiga alohida e'tibor qaratish kerak. X. To'xtaboyev, A. Obidjon, P. Mo'min, G'.G'ulom, Sh. Sa'dulla, T. Adashboyev, chet el bolalar adabiyoti vakillaridan esa Sh. Pero, Jonatan Svift, Aka-uka Grimmlar, X.K.Anderson, N.A. Nekrasov kabi bolalar ijodkorlarining asarlari va she'rlari o'qilganda, bolalarning obrazli tafakkuri rivojlanganligi kuzatilgan. Yosh avlodning o'z fikrini erkin bayon qilishga harakat qila boshlashi, yozma hamda og'zaki nutq qobiliyati rivojlanib, ezgulik, oliyjanoblik, vatanni sevish kabi fazilatlarga mehr tuyg'usining uyg'onishi, avvalo, bolalar adabiyoti orqali dunyoga keladi.

Dastlab bolalar adabiyoti uchun yaratilgan asarlar kelajak avlodning ta'lim-tarbiya olishlari, jaholatdan uzoq yurib, ilm yo'lidan borishlari uchun yaratilgan. Hamza Hakimzoda Niyoziy o'zining "Yengil adabiyot", Qiroat", "O'qish kitobi" singari darsliklarida bolalar uchun mo'ljallangan she'r, hikoya, masal hamda maqollar kiritilgan. Niyoziyning bolalar uchun yozgan "Bir kishining bor edi to'rt bolasi" she'rida odob-axloq mavzusi, insoniylikning turli tuman yaxshi va yomon jihatlarini qamrab olgan. Saxiylilik va baxillik, to'g'riso'zlik va yolg'onchilik, mehnatsevarlik va dangasalik, sabr va sabrsizlik, qanoat va ta'magirlik, sadoqat va bevafoqlik, adolat va jabr-zulm singari insoniylikning qarama-qarshi qutblarida turgan o'nlab fazilat va illatlarning yaxshi-yu yomon jihatlarini xususida fikr yuritib, yaxshidan o'rnak olishga, yomonidan hazar qilishga undovchi she'r va hikoyalar keng o'rin olgan. Demak ko'rinib turibdiki, adabiyot bola qalbini tarbiyalovchi hamdaniy fazilatlarni o'rgatuvchi qurol hisoblanar ekan. Har bir bola o'ziga xos dunyoqarash va ruhiyatga ega. U o'z qiziqishlaridan kelib chiqqan holda asar tanlaydi. Sarguzasht va fantastikani sevuvchi bolalar, asosan, shu yo'nalishda yozilgan asarlarni o'qishni xush ko'rishadi. Misol sifatida G'.G'ulomning "Shum bola" qissasini oladigan bo'lsak, qissada Birinchi jahon urushi yillaridagi xalq hayoti bolalar nigohi orqali yaqqol tasvirlangan. Qoravoyning boshidan kechirilgan sarguzashtlari yumoristik ruhda yaratilgan bo'lsa-da, davr hayotining ayanchli hodisalari u va unga o'xshagan qahramonlarni cheklab o'tmagan. Qissani o'qish orqali o'quvchi "Shum bola" qahramoni o'rnida o'zini his qiladi. Hayotda o'z o'rnini topish uchun ilm va hunar o'rganish kerakligini anglaydi. Bolalar

yozuvchilarining asarlarini o'qish – bu shunchaki bo'sh vaqtni to'ldirish emas, balki bolada ijodiy fikrlash, mustaqil qaror chiqarish, tasavvur qilish va o'z dunyoqarashini shakllantirishning muhim vositasidir. Har bir o'qilgan ertak, hikoya yoki she'r bolaning ichki olamini boyitadi, unga yangi g'oyalar, tushunchalar beradi. Bola asar qahramonlari bilan birga yashaydi, ularning his-tuyg'ularini o'zida kechiradi. Shu orqali u insoniy fazilatlarni anglaydi, yaxshilik bilan yomonlikni ajrata oladi, qaysi harakat to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini tushunadi. Bu esa uning axloqiy-ruhiy rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, bolalar yozuvchilari o'z asarlarida bolalarga tanish bo'lgan holat va muammolarni tilga oladi. Bola o'zini bu holatlar bilan solishtiradi, ularni qanday hal qilish haqida o'ylaydi. Bu esa unda muammoni tahlil qilish, yechim topish kabi ijodiy yondashuvlarni rivojlantiradi. Yozilgan asar asosida bola yangi syujet tuzadi, o'z hikoyasini yaratishga intiladi. Rasm chizadi, rolli o'yinlar o'ynaydi, she'rlar yozadi yoki sahna ko'rinishlari tayyorlaydi. Bu faoliyatlar bolaning nafaqat ijodiy fikrlashini, balki nutq madaniyatini, eshitish, ko'rish, tahlil qilish, ifoda qilish, emotsional sezgirlik kabi ko'plab ijtimoiy va psixologik ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

Shu bois, bolalar adabiyotidan to'g'ri va maqsadli foydalanish, o'quv jarayoniga integratsiyalash, oilada ham bolani kitob bilan do'st qilish — bolani har tomonlama rivojlantirishda, ayniqsa ijodiy qobiliyatini shakllantirishda juda muhim hisoblanadi. Demak, bolalar yozuvchilarining asarlarini muntazam o'qish va ular asosida turli ijodiy faoliyatlarni yo'lga qo'yish — ijodiy avlodni tarbiyalashning eng samarali usullaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, bolalar yozuvchilari asarlarini o'qish bolaning shaxs sifatida shakllanishida, ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Bunday adabiyotlar orqali bola o'zining ichki olamini anglaydi, o'zini ifoda etishga, o'ylashga, yaratuvchan bo'lishga o'rganadi. Bu esa kelajakda mustaqil fikrlaydigan, ijodkor avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1) B.S.Jamilova Bolalar adabiyoti nazariyasi. Toshkent:Noshir, 2009.
- 2)Qodirova D. Bolalar adabiyoti asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
- 3) Sodiqova, D. Adabiyot darslarida ijodiy fikrlashni rivojlantirish yo'llari. // Pedagogik izlanishlar jurnali, 2021, №2.
- 4) Ortiqova, M. Bolalar adabiyotida obraz va tasvir vositalari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2016.
- 5)Sharipova, M. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirishda badiiy adabiyotning roli. // Ta'lim va taraqqiyot, 2022, №3.
- 6)Abdullaeva, Z. O'zbek bolalar adabiyoti tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2019.